

**Yangibozor tuman Xalq ta'lim bo'limi va "Firuza Gaz" MChJ o'rtasida
tuzilgan siqilgan gaz yetkazib berish tog'risidagi № 31-sonli shartnomasini
huquqiy ekspertizadan o'tkazish yuzasidan**

X U L O S A

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyundagi PQ-5168-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari to'g'risida"gi Nizomga asosan Yangibozor tuman **Xalq ta'lim bo'limi** va "Firuza Gaz" MChJ o'rtasida 2022-yil 10-yanvardagi №31-sonli siqilgan gaz yetkasib berish to'g'risidagi shartnoma loyihasini o'rganib chiqib uni huquqiy ekspertizadan o'tkazdim. Shartnomaning umumiyligi summasi 4495500(to'rt million to'rt yuz to'qson besh ming besh yuz) so'mni tashkil qiladi. O'zbekiston Respblikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy ba'zasi to'g'risida"gi 1998 yil 29 avgustdagi Qonunining 10, 20, 21-moddalari talablari asosida tuzilgan. Shartnomani imzolagan Yangibozor tuman **Xalq ta'lim bo'limi** mudiri S.Reymova va "Firuza Gaz" MChJ rahbari I.X.Atdjanov yuridik shaxs nizomiga hamda chiqarilgan buyruqlarga asosan birinchi imzo huquqi berilgan.

Shartnoma imzolashda shartnomalarni tuzishning erkinligi, taraflarning o'zaro manfaatdorligi, shartnoma intizomiga rioya etish, taraflarning o'zaro mulkiy javobgarligi prinsiplariga to'liq rioya qilingan va taraflarning huquqlari hamda majburiyatlar aniq ko'rsatib o'tilgan.

XULOSA QILINDI:

Yangibozor tuman Xalq ta'lim bo'limi va "Firuza Gaz" MChJ o'rtasida 2022-yil 10- yanvar kuni tuzilgan №31-sonli siqilgan gaz yetkazib berish to'g'risidagi shartnoma loyihasi amaldagi qonun xujjatlari asosida ishlab chiqilganligi va qonunchilik texnikasi talablariga muvofiqligi qayd etilsin.

**Yangibozor tuman yuridik xizmat
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti:**



U.Allamov